



**Bahridil ERGASHEVA,**  
Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti  
E-mail: bahridilergasheva5@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti H.Mamadaliyev taqrizi asosida

## QADIMGI DINIY E'TIQODLARDA AYOL SIYMOSI

Annotatsiya

Turon hududi Markaziy Osiyo va unga tutash mintaqalarni qamrab olgan keng makon sifatida, insoniyat tarixining muhim chorraxalaridan birida joylashgan bo'lib, miloddan avvalgi davrlardan to hozirgi kunga qadar turli xalqlarning o'zaro ta'siri va madaniy almashinuvi maydoni vazifasini o'tab kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayol kultlari qadimgi jamiyatlarning diniy qarashlarida markaziy o'rinlarni egallash bilan birgalikda ularning ijtimoiy-ma'naviy tuzilishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatish orqali, insonlar hayotida muhim va ko'p qirrali rollardan birini o'ynagan. Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada ushbu hududdagi xalqlarning ayol siymosiga bo'lgan qarashlarining ildizlarini etnografik jihatdan ochib berishga harakat qilindi. Paleolit davri qoldiqlari orasidagi ayol haykalchalari, keyingi o'rinda fetishizm, animizm, shamanizm kabi dinning ilk kurtaklari va shu bilan birgalikda zardushtiylik, buddaviylik, islom dinida ayol siymosiga bo'lgan qarashlar tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Umay ona, Anahita, Buyuk iloha kult, ayol siymosi, haykalchalar, farzand, animizm, zardushtiylik.

## THE FIGURE OF WOMEN IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS

Annotation

The Turan region, as a vast space covering Central Asia and adjacent regions, is located at one of the important crossroads of human history, and has been a place of interaction and cultural exchange of different peoples from the times before Christ to the present day. It is worth noting that, in addition to occupying a central place in the religious views of ancient societies, female cults played an important and multifaceted role in human life by seriously influencing their socio-spiritual structure. Based on these aspects, this article attempts to ethnographically reveal the roots of the views of the peoples of this region on the figure of women. Female figurines among the remains of the Paleolithic era, then the first buds of religion such as fetishism, animism, shamanism, and at the same time views on the figure of women in Zoroastrianism, Buddhism, and Islam were analyzed.

**Key words:** Mother Umay, Anahita, Great Goddess cult, female figure, figurines, child, animism, Zoroastrianism.

## ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ДРЕВНИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ВЕРОВАНИЯХ

Аннотация

Туранский регион, как обширное пространство, охватывающее Среднюю Азию и прилегающие регионы, расположен на одном из важных перекрестков человеческой истории и служил местом взаимодействия и культурного обмена между различными народами с доисторических времен до наших дней. Стоит отметить, что женские культы, помимо того, что занимали центральное место в религиозных воззрениях древних обществ, также играли важную и многогранную роль в жизни человека, существенно влияя на его социально-духовную структуру. На основе этих аспектов в статье предпринята попытка этнографически раскрыть корни представлений народов этого региона об образе женщины. Были проанализированы женские фигурки среди останков эпохи палеолита, затем первые зачатки таких религий, как фетишизм, анимизм и шаманизм, а также взгляды на женскую фигуру в зороастризме, буддизме и исламе.

**Ключевые слова:** Мать Умай, Анахита, культ Великой Богини, женская фигура, статуэтки, ребёнок, анимизм, зороастризм.

**Kirish.** Turon hududi nafaqat boy madaniy chorraxa, balki geografik jihatdan turfa xillikni, shu hududdagi xalqlarning diniy e'tiqodlarida va mifologik qarashlarida o'ziga xoslikni shakllanishiga zamin yaratgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayol kultlari qadimgi jamiyatlarning diniy qarashlarida markaziy o'rinlarni egallash bilan birgalikda ularning ijtimoiy-ma'naviy tuzilishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatish orqali, insonlar hayotida muhim va ko'p qirrali rollardan birini o'ynagan. Ular jamiyatning iqtisodiy farovonligi, oilaviy munosabatlarning mustahkamligi va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishida katta ahamiyat kasb etgan. Ayol xudolarga sig'inish orqali insonlar tabiat kuchlari bilan munosabatlarini tartibga solishga, unumdorlikni rag'batlantirishga, oila va jamiyatni himoya qilishga va hayotiy muammolarni hal etishga intilgan. Ayollar nafaqat oila o'chog'ining bekasi, shu bilan birgalikda madaniyat va ma'naviyat yaratuvchisi Qadimgi Turon jamiyatida ayol xudolar kulti ayollarning ijtimoiy mavqeini belgilashda va onalik qadriyatlarini ulug'lashda muhim rol o'ynaganligi sababli, ayol siymosini elshunoslik jihatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Turon hududining qadimgi diniy e'tiqodlarini, xususan, ulardagi ayol siymosining o'rnini o'rganish, mintaqaning madaniy merosini anglash va insoniyat tarixidagi tamaddun ildizlarini tahlil qilish orqali o'zbek oilalarida

qiz bolalaga bo'lgan munosabatlarni qanday shakllanganini va rivojlanishini bilib olishimiz mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Diniy e'tiqodlarda ayollar siymosi dunyo bo'yicha barcha tadqiqotchilarni qiziqtirgan mavzulardan biri desak xatò bo'lmaydi. Ushbu masalani o'rgangan olimlarning ishlarini biz arxeologik, etnografik, folklor jihatdan tasniflab chiqdik. Ammo ushbu maqolada faqatgina tarixiy jihatdan yoritdik. Ajdodlarimizning diniy e'tiqodlaridagi ayollar siymosini o'rganishda bizga eng birinchi ma'lumotlarni arxeologik manbalar beradi. Masalan, umumiy qarashlarni S.Roberts, P.Efimenko, S.Tokarevlarining tadqiqotlari orqali misol qilib keltirishimiz mumkin. S.Roberts, ayol xudolar bu ma'budalardir [4] bo'lib ayol shaklida tasavvur qilingan oliy xudoga ishora qiladi va ko'p dinlarda ma'budalar katta rol o'ynaydi [4] deya xulosa beradi. Neolit yoki yangi tosh davri qishloq ho'jaligi kashf etilganidan keyin ehtimol Osiyoda o'troq jamoalarning vujudga kelishi, diniy nuqtai nazardan ma'buda asosan yerga o'xshatildi. U ko'pincha yer, fasllar bilan shu bilan birgalikda ekin ekish payti, hosil bayramlari bilan bog'landi [4]. P.Efimenkoning so'zlariga ko'ra, "ayol kultlari", nafaqat "ajdodlar" va shu bilan birga "o'choq qo'riqchilari" va ovning sehrli marosimlarini bajaruvchilardir [10] deb xulosa beradi. S. Tokarev ham uning fikrlarini ma'qullab, ayolning o'rni dunyo xalqlari orasida juda uzoq vaqt saqlanib qolganligini, marosimlarda hanzu bu davom etayotganini

[10] ta'kidlaydi. Taniqli o'zbek arxeologlari akademik A.Asqarovning fikricha, "onalarni ilohiylashtirish, ularning siymosini toshda, suyakda, qoyada yasash va chizish, ya'ni ibtidoiy san'atning kashf etilishi [7]" va bu uning maqomi yuksak ekanidan dalolat berishga urg'u beradi. A.Sagdullayev esa "Ona va bolani tasvirlovchi terrakota haykalchalarning aksariyatida onaning bolaga bo'lgan mehri va farzandning onaga bo'lgan ishonchi aks ettirilgan. Bu holat o'sha davr jamiyatida ona-bola munosabatlarining emotsional jihati yuqori qadrlanganligi bilan bog'liq [5]"ligini o'rganadi. B.Eshov "Bolaliktepadaqi ona va bola tasvirlangan sahnalarning ba'zilarida ona bolaga muqaddas kitoblarni o'qib berayotgan yoki diniy marosimlarda ishtirok etishga o'rgatayotgan lahza aks ettirilgan. Bu esa onaning farzandga ma'naviy qadriyatlarini singdirishdagi rolini ko'rsatadi[2]".

Etnografik jihatdan ayol kulti bilan bog'liq tadqiqotni O.Suxareva yozishicha, "O'zbekistonning janubiy hududlarida hozirgi kunda ham bola tug'ilgandan so'ng onaga beriladigan maxsus sovg'alar, ona va bolaning birgalikda kiyinishi, onaning homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davrda rioya qiladigan qoidalari, Bolaliktepadaqi topilmalarda aks ettirilgan an'analarning davomi hisoblanadi[6]". G.Pugachenkova o'zining "O'rta Osiyo san'ati tarixi" nomli asarida Bolaliktepadaqi ona va bola tasvirlarini tahlil qilar ekan, ularda zoroastriylik va mahalliy madaniy an'analari ta'sirini ko'radi: "Bolaliktepadaqi ona va bola tasvirlari zoroastriylik dinidagi Ardivisura Anahita (suv va hosildorlik ma'budasi) kultining ta'sirini aks ettiradi, ammo shu bilan birga mahalliy turkiy qabilalarning ona va bola munosabatlariga bo'lgan qarashlarini ham o'zida mujassam etgan[3]" deya xulosa beradi. X.Karomatov ham o'z tadqiqotlarida 12-15 sm balandlikdagi mazkur haykalchalarning ho'llari konus shaklida ishlanib, ayrimlarining tepa hismida teshik borligi, tumor sifatida tahir yurilganidan dalolat beradi. Odatda, ular olovda kuydirilib, ba'zilar bo'yalgan ham [9]. Taniqli etnograf olim A.Ashirov ayollar siymosiga qarashlarning saqlanib qolgan jihatlarini marosimlar orqali o'rganib, bolaning hayotida ona muhim zot bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar esa Umay ona haqidagi qadim qarashlar asosida, chaqaloqlarning himoyachisi[1] ekanini ta'kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada umumiy yondoshuv, mantiqiylik, tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Ushbu maqolani tayyorlashda mavzuga oid bo'lgan asosiy manba bo'lgan arxeologik, diniy manbalar va tadqiqotlardan qadim diniy e'tiqodlarda ayol siymosiga qarash qanday shakllanganligi o'rganib, tasniflandi.

**Tahlil va natijalar.** Paleolit davri qoldiqlari orasida juda ko'p sonli ayol haykallar mavjud bo'lib ularning yoshi 30000 hatto 40000 yil hisoblanadi. Haykallar turli shakllarda, semiz, nozik, hayotiy va hayoliy bo'lib olimlar hamon bu haykallar aniq qanday ma'noga ega ekanligi haqida bahlashishadi [4]. Qadimiy e'tiqodlarda ayollarga bo'lgan munosabat dastlab ilohiy tusda bo'lgan. Ayol xudolar bu ma'budalar [4] bo'lib, ayol shaklida tasavvur qilingan oliy xudoga ishora qiladi va ko'p dinlarda ma'budalar katta rol o'ynaydi [4]. Neolit yoki yangi tosh davri qishloq ho'jaligi kashf etilganidan keyin ehtimol Osiyoda o'troq jamoalarning vujudga kelishi, diniy nuqtai nazardan ma'buda asosan yerga o'xshatildi. U ko'pincha yer, fasllar bilan shu bilan birgalikda ekin ekish payti, hosil bayramlari bilan bog'landi [4].

P.Efimenkoning fikrlariga qaraganda, "ayol kultlari", nafaqat "ajddolar" va shu bilan birga "o'choq qo'riqchilari" va

ovning sehrli marosimlarini bajaruvchilardir [10] bo'lib, ularning farzand dunyoga keltira olishi alohida urg'ulangan. Aynan shuning uchun ulug'lanib, muqaddas o'choq qo'riqchilari sifatida tan olingan. S.Tokarev ayolning o'rni dunyo xalqlari orasida juda uzoq vaqt saqlanib qolganligini, "O'choq bekasi"ning diniy-mifologik qiyofasi ona-urug'ning turmush tarzi asosida yaratilgan bo'lsa, xuddi shu turmush tarzidan kelib chiqqan holda, oila va maishiy marosimlarda ayollarning ustuvorligi bir xil vaqtgacha davom etgan bo'lsa, ajabmas [10] deb ta'kidlaydi. Ayolga bo'lgan munosabatni haykalchalar orqali ham bilib olishimiz mumkin. Ular toshlarda, suyaklarda, qoyatosh sur'ratlarida aks etishi ibtidoiy san'atning kashf etilishi [7]" va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu uning yuksak maqomidan darak beradi.

Ushbu san'at asarlarida asosan on avai bola bir o'rinda aks ettirilgan bo'lib, unda onaning farzandga bo'lgan mehrini ko'rsatishga urg'u beriladi. Bu holat o'sha davr jamiyatida ona-bola munosabatlarining ruhiy jihati yuqori qadrlanganligi bilan bog'lanadi [5]. Shuningdek, Bolaliktepadaqi ona va bola tasvirlarida onaning bolaga diniy tarbiya berayotgani, marosimdagi ishtirok saxnasi orqali aks etiriladi. Bu esa onaning farzandga ma'naviy qadriyatlarini singdirishdagi rolini ko'rsatadi[2]. Ushbu Bolaliktepadaqi ona va bola tasvirlari zoroastriylik dinidagi Ardivisura Anahita (suv va hosildorlik ma'budasi) kultining ta'sirini aks ettiradi, ammo shu bilan birga mahalliy turkiy qabilalarning ona va bola munosabatlariga bo'lgan qarashlarini ham o'zida mujassam etgan [3] ligiga ishoralar mavjud. Shuningdek ayrim ayol haykalchalarning ho'llari konus shaklida ishlanib, ayrimlarining tepa hismida teshik borligi, tumor sifatida taqib yurilgan [9] ligi fetishizmga ham ta'sir etganidan dalolatdir. Ayollar siymosiga qarashlarning saqlanib qolgan jihatlarini marosimlarda ham yaqqol sezilib, bolaning hayotida ona muhim zot bo'lganligini ko'rsatadi. Bu qarashlar esa Umay ona haqidagi qadim qarashlar ustun bo'lib, chaqaloqlar himoyachisi Umay ona [1] ning islom dinidan ham oldinroq xalqning qarashlarida mavjud [8] bo'lganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda jangovorlik ilohasi hisoblangan Nana baqtriyaliklar, xorazmliklar, sog'diylar hayotida muhim rol o'ynaydi. Kushonlar imperiyasi davrida hatto xudo sifatida ham sig'inishgan [11]. M.SHenkarning ta'kidlashicha, Nana butun So'g'dda tanilgan bo'lsa-da, har bir mintaqada birdek mashhur bo'lmagan va uning Panjakentdagi ahamiyati beqiyos edi [11].

Bugungi kunda ushbu ilohalarga garchi e'tiqod qilinmasada, marosim va urf-odatlarining asosiy qahramonlari sifatida gavdalandi. Misol uchun, Bibi seshanba, Bibi mushkulkushod kabi ayollar hayotidagi qiyinchiliklardan yengil o'tib, baxt saodatga yetishishlarini so'rab iltijo qilish xalqimizning kundalik qarashlariga singib, qorishib ketgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, qadimgi diniy e'tiqodlar va tasavvurlarda ayol siymosi o'ziga xos, ko'p qirrali bo'lib shakllangan va turli vazifalarni bajargan. U avvalo xalqimiz qarashlarida ma'buda, iloha, himoyachi, tarbiyachi, ona, donishmand kabi rollarni ijro etgan. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy, ma'naviy hayotda ayollarning o'rni muhim bo'lganidan dalolat beradi. Garchi diniy qarashlar ko'p va o'zgarib turgan bo'lsada, ular xalqlarning hayotining muhim bir qismi sifatida singib ketgan va qadimgi e'tiqod ildizlari zamonaviy madaniyatda saqlanib qolgan. Shuningdek, ushbu masala gender tengligi jihatidan chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Аширов А. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар. Тошкент. 2008. Дисс. 248 б
2. Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. Тошкент: Фан, 2012. 203-б.
3. Пугаченкова Г.А. Искусство Средней Азии. Москва: Искусство, 1980. с. 203
4. Roberts S. Ellvud. The encyclopediya of world Religions. New York. 2007. 181 p
5. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 98-б.
6. Сухарева О. Мать и ребёнок у народов Средней Азии. В кн.: Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. Москва: Наука, 1978. с. 182.
7. Аскаров А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. Тошкент. Фан. 2023. 4 б.
8. Е.Станбекович. Кыргыздардагы Умай эненин культу: тарыхый салыштырмалуу иликтөөлөр. Бишкек. 2023. Дисс. 31 с
9. Кароматов Х. Ўзбекистонда мазий эътиқодлар тарихи. Тошкент. 2008. 304 б

- 
10. Токарев С. Ранние формы религии. Москва. Политиздат, 1990. 553 стр.
  11. [https://en.wikipedia.org/wiki/Nana\\_\(Bactrian\\_goddess\)#Nana\\_as\\_a\\_warlike\\_goddess](https://en.wikipedia.org/wiki/Nana_(Bactrian_goddess)#Nana_as_a_warlike_goddess)